O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT
UNIVERSITETI

MINISTRY OF HEALTH OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF MEDICINE

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2
2. Farobiy str. Tashkent 100109

Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz, tta@exat.uz

17 iyul 2025 yil. **4298-son**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Kengashi yig‘ilishining

1-son BAYONI

Toshkent shahar «28» iyun 2025-yil

Raislik qiluvchi: Sh.A.Boymuradov Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori

Qatnashdilar: Toshkent davlat tibbiyot universitetining Ilmiy kengashi a’zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-apreldagi “Tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari“ to‘g‘risidagi 149-sonli Prezident qarorini ijrosini ta’minlash bo‘yicha Toshkent davlat tibbiyot universitetining strategik vazifalari.

Ma’ruzachi: Toshkent davlat tibbiyot universitetining rektori professor Boymuradov Shuxrat Abdujalilovich.

2. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan ma’qullandi.

QAROR QILADI:

1.Kun tartibining asosiy masalasi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-apreldagi “Tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari“ to‘g‘risidagi 149-son Prezident qarorini ijrosini ta’minlash bo‘yicha Toshkent davlat tibbiyot universitetining (keyingi o‘rinlarda Universitet) strategik vazifalari

to‘g‘risida”gi mavzusi bo‘yicha rektor professor Boymurodov Shuxrat Abdujalilovichning ma’lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

1.1.Universitet rektori Sh.A.Boymurodovning ma’ruzasida Universitetning rivojlanishida – tibbiy ta’limdagi islohotlar, shu jumladan, o‘quv jarayonidagi yangi innovatsion texnologiyalar, universitetning yaqin, o‘rta va uzoq muddatdagi amalga oshiraladigan raqamlashtirish ekotizimi va rejalari, ilmiy yo‘nalishlari bo‘yicha yo‘l xaritasi, xalqaro reytingdagi yaqin va uzoq rejalari, iqtidorli yoshlarni qo‘llab quvvatlash hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlar rejasi, kafedralarning o‘quv va o‘quv-amaliyot bazalari, davolash ishlari, litsey va filiallar bo‘yicha rejalar, universitet veb-saytlari va boshqa ko‘rsatilgan barcha yo‘nalishlar doirasidagi ustuvor maqsad va vazifalar barcha Universitet xodimlariga yetkazilishi va ijro uchun qabul qilinishi ta’minlansin.

Mas’ul: Fakultet dekanlari, bo‘lim boshliqlari, filiallar direktorlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025-yil 30-iyun.

1.2.Universitetning xalqaro reytinglarda o‘rnini belgilaydigan ko‘rsatkichlar bo‘yicha **kafedralarga kuyidagi ustivor vazifalar amalga oshirilishi ta’minlansin:**

- xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda uzoq muddatli strategik hamkorlik aloqalari o‘rnatilishi va mustahkamlanishi;

- xorijiy universitetlarda ma’ruzalar, seminarlar, mahorat darslari va boshqalarni o‘tkazilishi («Guest lectures»);

- Universitet xodimlarining xorijda malaka oshirishlari va boshqa ilmiy tadbirlarda (konferensiyalar, kongresslar, simpoziumlar) ishtirok etishlari;

- kafedraning o‘quv jarayoniga xorijiy mutaxassislarning doimiy ravishda hamda masofaviy formatda jalb qilinishi;

- kafedra tomonidan xalqaro loyiha va dasturlarda ishtiroq etilishi bo‘yicha takliflar berilishi;

- xorijiy hamkorlar bilan birgalikda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarni tashkil etilishi;

- xorijiy hamkorlar bilan ilmiy va o‘quv mahsulotlarni yaratilishi;

-xalqaro reytinglarning doirasida Universitetning akademik reputatsiyasi bo‘yicha so‘rovnomalarida xorijiy hamkorlarni ishtirok etishi;

-xalqaro reytinglarning ish beruvchilar fikrini o‘rganish so‘rovnomalarida xorijiy hamkorlarni ishtirok etishi;

- xorijiy hamkorlar bilan birgalikda qo‘shma maqolalar, monografiyalar chop etilishi va dissertatsiya ishlariga xorijlik mutaxassisni ilmiy rahbarlikga jalb etilishi;

- xorijiy universitetlarda“Faxrli professor” unvonini egallash;

- xalqaro mukofotlarni qo‘lga kiritilishi;

- xalqaro ilmiy jamiyat va uyushmalarga a’zo bo‘lishi;

- o‘quv dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazilishi.

Ma’sul: Xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektori J.D.Israilov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar buyicha prorektori F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025/2026-o‘quv yili davomida.

1.3. Universitet kafedralarining 2025/2026-o‘quv yiliga tayyorgarligi bo‘yicha **o‘quv va o‘quv-uslubiy ishlari doirasida belgilangan kuyidagi vazifalar amalga oshirilishi ta’minlansin:**

- kafedrada ta’lim beriladigan fanlar kesimida bakalavriat bo‘yicha “Fan dasturlari”ni “Oilaviy shifokorlar”ni tayyorlash dasturlariga hamda magistratura, klinik ordinatura bo‘yicha mutaxassisliklarga mos ravishda tayyorlanishi va tasdiqlanishi, bunda amaliy mashg‘ulotlarning kamida 50% ni kompetensiyalarga asoslangan amaliy ko‘nikmalarga ajratilishi;

- kompetensiyalarga asoslangan amaliy ko‘nikmalarni qadamma-qadam bajarish uchun yo‘riqnomalar va uslubiy qo‘llanma ishlab chiqilshishi va tasdiqlanishi;

- o‘quv auditoriyalarni mavzuviy ko‘rgazmali materiallar hamda amaliy ko‘nikmalarni bajarish uchun jihozlanishi;

-kompetensiyalarga asoslangan amaliy ko‘nikmalarni baholash tizimini ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi;

- fan bo‘yicha “Sillabus” ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi;

- fan bo‘yicha “O‘quv-uslubiy majmua”ni ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi;

- fan bo‘yicha “Ma’ruza” matnlari va prezentatsiyalarini tayyorlanishi;

-laboratoriya ishlarini o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnoma va uslubiy qo‘llanmalarni tayyorlanishi va tasdiqlanishi;

- kafedra shtatini shakllantirilishi, o‘quv yuklamani taqsimlanishi;

-2025/2026- o‘quv yiliga “Dars jadvali”ni shakllantirilishi va tasdiqlanishi;

- o‘quv jarayonini raqamlashtirish ishlarini amalga oshirilishi, “Elektron jurnal”ni yuritishga tayyorgarlik ko‘rilishi;

- belgilangan namuna asosida kafedra peshtaxtalari, kafedra mudiri, professor, dotsent, assistentlarning o‘quv xonalarini nomlanishini o‘zgartirilishi.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor K.N.Xaitov, O‘quv-uslubiy departament boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025-yil 15-avgust.

2. Turli masalalar bo‘yicha kengash kotibi G.A.Ismailova dissertasiya, monografiya mavzulari va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbig‘ini tasdiqlash uchun ilmiy mahsulotlar bilan tanishtirdi va tasdiqlash uchun ovozga quyildi (ilovada keltirilgan).

2.1. Toshkent davlat tibbiyot universiteti Yuz-jag‘ jarrohligi va stomatologiya kafedrasi mudiri, t.f.d., professor Sh.A.Boymuradov rahbarligida “Lazerli mikro-nano-texnologiyalar yordamida past modulli va antibakterial tish implantatsiya tizimini tadqiq etish va ishlab chiqish” (Research and development of low-modulus and antibacterial dental implant system by laser micro- and nano- manufacturing eng.) nomli ilmiy loyihasi Innovatsion rivojlanish vazirligiga loyihalar tanlovida qatnashish uchun tavsiya etilsin.

2.2. Universitetda 19.00.06-Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutini ochish taklifi ma’qullansin va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligiga taklif yuborilsin.

Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova.

Muddat: 2025-yil, 20-iyul.

2.3. Toshkent davlat tibbiyot universiteti tarixi va unda faoliyat ko‘rsatgan olimlar to‘g‘risida mutaxassislik yo‘nalishlari (har bir yo‘nalish) kesimida ko‘p tomlik kitob yaratish to‘g‘risida Yoshlar masalalari va ma’naviy ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomurotovning taklifi tasdiqlansin.

Kitobni tayyorlash uchun yo‘nalishlar kesimida ishchi guruh tarkibi shakllantirilsin va faoliyati yo‘lga qo‘yilsin.

Mas’ul: Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomurotov.

Muddat: 25-iyul.

2.4. 1920-yilda tibbiyot instituti tashkil etilgandan boshlab hozirga qadar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatgan shuningdek, hozirda faoliyat yuritayotgan olimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tayyorlab Ishchi guruhiga taqdim etilishini ta’minlasin.

Mas’ul: Fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2025-yil 20-avgustga qadar (2 oy muddat davomida).

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: VL34362752

Qaror bir ovozdan qabul qilindi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o‘z ishini yakunladi.

Rektor **Sh.A. Boymuradov**